IBROHIMIY DINLARDA JANNAT VA DO'ZAX TUSHUNCHASI.

Mamarajabov Mirqosim

Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasi o`qituvchisi

Pardaboyeva Sug`diyona

Tarix va filologiya 1-kurs talabasi

Annotatsiya*: Ushbu maqolada ibrohimiy dinlarda-yahudiylik, xristiyanlik va islomda oxirat hayoti haqidagi tasavvurlarning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida "Jannat" va "Do`zax" tushunchalarining oddiy mifologik qarashlardan murakkab teologik tizimga aylanish jarayoni yoritilgan. Maqolada yahudiylikdagi "Sheol", xristianlikdagi "Gefenna" va islomdagi "Jahannam" hamda "Jannat" tushunchalarining o`xshash va farqli jihatlari, ularning inson axloqini shakllantirishdagi sotsiologik hamda psixologik ahamiyati ochib beriladi.*

***Kalit so`zlar:*** *Ibrohimiy dinlar, eshatologiya, Jannat, Do`zax, evolyutsiya, oxirat hayoti, qiyosiy dinshunoslik, ilohiy adolat.*

Abstract: *This article provides a coparative analysis of the formations and developmental stages of afterlife concepts in Abrahamic religions -Judaism, Christianity and Islam.The study highlights the evolutionary process of "Heaven" and "Hell" from basic mythological views into complex theological systems. The article explores the similarities and differences between cocepts such as "Sheol" in Judaism and "Gehenna" in Christianity and "Jahannam" and "Jannat" in Islam, as well as their sociological and psychological significance in shaping human morality.*

Keywords: *Abrahamic religions, eschatology, Heaven, Hell, evolution, afterlife, comparative religion, divine justice.*

Аннотация: *В данной статъе проводится сравнителъный анализ*

формирования и этапов развития представлений о загробной жизни в авраамических религиях- иудаизмеб христианстве и гсламе . В ходе исследования освещается процесс трансформации поняеий «Рай» и «Ад» из простых мифологических воззрений в сложные теологические системы. В стастъе раскрываютсия сходства и различия таких понятий , как «Шеол» в иудаизме, «Геенна» в христианстве, «Джаханнам» и «Джаннат» в исламе, а также их социологическое и психологическое значение в формировании человеческой морали.

Ключевые слова: *Авраамические религии, есхатология, Рай , Ад, эволюция, загробная жизнъ, сравнителъное религиоведение, божественная справедливостъ.*

Kirish: Insoniyat paydo bolibdiki hayotning mazmunini va jismoniy o`limdan keying holat haqidagi savollar har bir davr kishisini o`ylantirib kelgan. Bu boradagi qarashlar dinshunoslik fanining fundamental qismi bo`lgan “eshatologiya” (oxirat haqidagi ta`limot) tushunchasining shakllanishiga asos bo`ldi. Ayniqsa, jahon sivilizatsiyasida o`chmas iz qoldirgan ibrohimiy dinlar-yahudiylik, xristianlik va islom e`tiqod tizimlarida jazo va mukofot joyi sifatida talqin etiluvchi “Jannat” va “Do`zax” tushunchalari markaziy o`rinni egallaydi. Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki,ibrohimiy dinlardagi Jannat va Do`zax tasvirlarini qiyosiy-tarixiy tahlil qilish orqali ushbu dinlarning mushtarak ildizlarini va insoniyat ma`naviy tafakkurining o`sish bosqichlarini ko`rish mumkin. Tadqiqotning asosiy maqsadi -yahudiylikdagi “Sheol” tushunchasidan boshlab, xristianlikdagi ruhiy najot g`oyasi va islom falsafasidagi mukammal oxirat manzaralarigacha bo`lgan yo`lni ochib berishdan iboratdir.

Ibrohimiy dinlar silsilasida oxirat haqidagi tasavvurlar evolyutsiyasini o`rganishni end qadimgi manba- yahudiylik e`tiqodidan boshlash lozim.

Tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, ilk yahudiy matnlarida bugungi kundagi kabi aniq “Jannat” va “Do`zax” tasvirlari mavjud bo`lmagan. Buning o`rniga barcha vafot etganlar uchun umumiy bo`lgan “Sheol” tushunchasi qo`llanilgan.Buning o`rniga barcha vafot etganlar uchun umumiy bo`lgan “Sheol”- bu na mukofot, na jazo joyi bo`lib, u yer ostidagi “soyalar makoni” sifatida tasvirlangan.

Vaqt o`tishi bilan , xususan, Bobil asirligidan keying davrlarda yahudiy tafakkurida ilohiy adolatga bo`lgan ehtiyoj kuchaydi. Natijada, yomonlar uchun jazo joyi sifatida “Gehinnom” (Gehenna) va ezgu amallari uchun mukofotlanuvchi bog`- “Gan Eden” (Adan bog`i) tushunchalari shakllanadi. Bu jarayon ibrohimiy dinlardagi eshatologik evolutsiayaning ilk poydevori bo`lib xizmat qildi.Yahudiylikda o`liklarning qayta tirilishi va o`liklar hukmi (Oxirat kuni)ga ishoch bor, bu esa jismoniy va ruhiy tiklanishni anglatadi. Bu dindagi asosiy urg`u bu-qoidalar va amallarni boshqarish orqali yer yuzida “Adolatli dunyo” (Tikkun Olam) barpo etishga ko`proq e`tibor qaratilgan. Yahudiylikdagi asosiy jihatlardan biri Geyinnom (Do`zax)dir. Bunda do`zax ruhning o`z gunohlari uchun poklanadigan joyi. Yahudiylikda do`zax abadiy emas; aksariat qarashlarga ko`ra, ruh bu yerda maksimal 12 oy davomida poklanib, so`ngra jannatga o`tadi. Gan Eden (Jannat) tushunchasi esa ruhning poklanib, xudoning huzurida bo`ladigan ruhiy huzurbaxsh joy yoki holatdir. Bu jismoniy lazzatlardan ko`ra, ma`naviy yuksaklikni anglatadi.

Xristianlik dini. Bu davrga kelib, oxirat hayoti insoniyatning najot topishi (salvation) bilan chambarchas bog`liq holda tasvirlana boshladi.Iso alayhissolomning ta`limotlarida Jannat (Samoviy saltanat) shunchaki jismoniy rihat emas, balki Xudo bilan abadiy muloqot sifatida ta`riflanadi. Xristianlik eshatologiyasida Do`zax tushunchasi axloqiy poklanmagan ruhlarning abadiy

iztirobi va ilohiy muhabbatdan mahrum bo`lishi sifatida talqin etiladi.Bu bosqichda Jannat va Do`zax tushunchalari insonning dunyoviy hayotidagi imoni va ruhiy halatining bevosita natijasi sifatida ko`rila boshladi. Mazkur din doirasida shakllangan visual tasvirlar, xususan, o`rta asrlardagi adabiy va diniy manbalar masalan, Dantening "Ilohiy komediya"si insoniyat tasavvurida oxirat manzarasini yanada boyitadi. Mazkur komediyada "nargi dunyoni" 3 qismga : "Do`zax", "A`rof", "Jannat" ga bo`lgan. Xiristianlikning oxirat haqidagi asosiy jihatlari bu- Iso Masihning ikkinchi bor kelishidir. Xristianlar Isoning qaytishi va Yer yuzida ilohiy saltanatni to`liq o`rnatishga ishonishadi. Oxirat kuni barcha o`lganlar tanasi bilan qayta tiriladi.Iso Masih tiriklar va o`liklarni hukm qiladi va e`tiqodiga qarab Jannat yoki do`zaxga hukm chiqariladi. Jannat-Xudo bilan abadiy birlashish, yorug`lik va osoyishtalik bo`lsa, Do`zax-Xudodan abadiy ajralish va azob-uqubatlar uchun joy hisoblanadi.

Islom dini.Ibrohimiy dinlar silsilasini yakunlovchi islom dinida Jannat va Do`zax tushunchalari o`zining eng mukammal va tizimli tasviriga ega bo`ldi. Qur`oni Karimda ushbu makonlar shunchaki ramziy tushunchalar emas, balki insonning ham ruhiy, ham jismoniy sezgilari orqali his qilinadigan haqiqiy voqelik sifatida ta`riflanadi. Islomiy manbalarda Jannat-mo`minlar uchun tayyorlangan cheksiz ne`matlar bog`i, tinchlik va Allohning roziligi makonidir. Jahannam esa adolatsizlik va gunohlar uchun beriladigan munosib jazo joyi sifatida tasvirlanadi. Bu yerda evolyutsiya o‘zining mantiqiy yakuniga yetdi: oxirat nafaqat "keyingi hayot", balki har bir inson amali uchun mutlaq adolatli hisob-kitob qilinadigan mezon darajasiga ko‘tarildi. Islomda Jannat bir xil tekislikdan iborat emas. U insonning imoni va qilgan amallariga qarab 8 ta asosiy darajaga bo‘linadi: Jannatul Firdavs: Eng oliy jannat bo‘lib, u Arshning ostida joylashgan; Jannatul

Adn: Abadiylik bog‘lari; JannatulMa’va:Mo‘minlar va shahidlar maskani; Jannatun Naiym: Ne’matlarga boy bog‘lar bo`lganlar. Islom dinida boshqa dinlardan farqli o‘laroq, jannatdagi lazzatlar nafaqat ruhiy (Allohning jamolini ko‘rish), balki jismoniy (mevalar, sut va asal daryolari, ipak liboslar) ko‘rinishda ham batafsil tasvirlangan. Bu insonning barcha sezgi a’zolari mukofotlanishini anglatadi. Do‘zax ham o‘z navbatida gunohlarning og‘irligiga qarab 7 ta darajaga bo‘lingan. Qur’onda "Uning etti darvozasi bor" ("Hijr" surasi, 44-oyat) deb ta’kidlanadi-Jahannam: Gunohkor mo‘minlar uchun (vaqtinchalik); Lazo: Qattiq olovli joy; Hutama: Suyaklarni ham maydalab yuboruvchi olov; Sa’iyr, Saqar, Jahiym va Hoviya: Eng og‘ir gunohkorlar va munofiqlar uchun mo‘ljallangan eng quyi qatlamlardir. Islomda do‘zax azobi faqat olovdan iborat emas. Unda "Zamharir" (o‘ta qattiq sovuq) azobi ham borligi aytiladi. Bu — jazo tushunchasining naqadar keng ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa: Ibrohimiy dinlarda "Jannat" va "Do‘zax" tushunchalarining shakllanishi va rivojlanish tarixini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, bu tasavvurlar shunchaki diniy mifologiya emas, balki insoniyatning ma’naviy-axloqiy kamoloti bilan birga o‘sib borgan murakkab tizimdir. Garchi har bir din (yahudiylik, xristianlik, islom) o‘ziga xos terminologiya va tasvirlarga ega bo‘lsa-da, ularning barchasida "Ilohiy adolat" g‘oyasi markaziy o‘rinni egallaydi. Yahudiylikdagi mavhum "Sheol"dan boshlangan yo‘l, Islomdagi aniq iyerarxik mukofot va jazo tizimigacha yetib kelishi insoniyatning "har bir amalning javobi bor" degan qat’iy ishonchini aks ettiradi.

Ibrohimiy dinlardagi oxirat hayoti haqidagi ta’limotlar inson hayotiga mazmun beruvchi, uni o‘lim qo‘rquvidan xalos etib, abadiyat va adolatga bo‘lgan umid bilan boyituvchi buyuk ma’naviy merosdir. Ushbu evolyutsiyani o‘rganish

bugungi kunda turli madaniyat va din vakillari o‘rtasidagi mushtarak qadriyatlarni topishda, o‘zaro bag‘rikenglikni (tolerantlikni) mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Qur’oni Karim. Ma’nolarining tarjima va tafsiri. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. – Toshkent: Hilol Nashr, 2021.
2. Muqaddas Kitob (Tanax va Injil). – Toshkent: O‘zbekiston Bibliya jamiyati, 2018.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Dinlar tarixi. – Toshkent: Hilol Nashr, 2019.
4. Mo‘minov A. va boshqalar. Dinshunoslik (Darslik). – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2004.
5. Armstrong K. A History of God (Xudo tarixi). – London: Vintage Books, 1999.
6. Eliade M. History of Religious Ideas (Dinlar tarixi: Iudaizmdan Xristianlikkacha). – Chicago: University of Chicago Press, 1982.
7. Imom G‘azzoliy. Ihyou ulumid-din (O‘lim va oxirat kitobi). – Toshkent: Adolat, 2005.
8. Dante Aligyeri. Ilohiy komediya. (O‘zbekcha tarjima). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1986.